



Hilola ZAYNIYEVA,

TDPU Yevropa tillari kafedrası dotsenti

E-mail: hilolazayni@gmail.com

Zumrat XUDOYBERDIYEVA,

TDPU Yevropa tillari kafedrası dotsenti v.b

E-mail: xudoyberdiyevazumrat@gmail.com

Dots. PhD Nazarov S.X. taqrizi asosida

LINGUOCULTURAL FEATURES OF LITERARY TRANSLATION

Annotation

This article thoroughly examines the concepts of lexical meaning, linguoculture, and literary translation. It analyzes the unique aspects of linguoculturally significant lexical units used in the novella “Dunyoning ishlari” (World Affairs), which was translated from Uzbek into German. The translation analysis is conducted through several examples, focusing on how these lexical units are expressed in both the original and translated texts.

Key words: lexical meaning, literary translation, original and translated language, linguoculture, transformation, descriptive translation, transliteration.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются понятия лексического значения, лингвокультуры и художественного перевода. Анализируются особенности лексических единиц с лингвокультурным значением, использованных в новелле “Dunyoning ishlari”, которая была переведена с узбекского на немецкий язык. Переводческий анализ проводится на основе нескольких примеров, с акцентом на выражение этих лексических единиц как в оригинальном, так и в переводном текстах.

Ключевые слова: лексическое значение, художественный перевод, язык оригинала и перевода, лингвокультура, трансформация, описательный перевод, транслитерация.

BADIIY TARJIMADA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR

Аннотация

Ushbu maqolada leksik ma'no, lingvomadaniyat, badiiy tarjima tushunchlari haqidagi qarashlar atroflicha o'rganilib, o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilingan “Dunyoning ishlari” qissasida qo'llanilgan lingvomadaniy xususiyatga ega leksik birliklarining asliyat va tarjima matnlarida ifodalagan o'ziga xos jihatlarning tarjima tahlili bir necha misollar orqali olib borildi.

Kalit so'zlar: leksik ma'no, badiiy tarjima, asliyat va tarjima tili, lingvomadaniyat, transformatsiya, tasviriy tarjima, transliteratsiya.

Kirish. Ilmiy-texnikaviy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyot bosqichida xorijiy til dunyo bo'ylab turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanib kelinmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sababli, bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlaridagi olimlar tezkor ma'lumot almashish va qo'shma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lib, ushbu aloqa vositalari tufayli zamonaviy ilm-fan misli ko'rilmagan natijalarga erishmoqda. Bunday sharoitda ko'pgina ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning ilmiy adabiyotlarning yuqori sifatli tarjimasiga ehtiyoji sezilarli darajada oshib bormoqda. Tarjimonlar esa ilmiy adabiyotlar tarjimalarini doimiy ravishda o'zining so'z boyligiga qo'shib borishi, atamalarni tushunish qobliyatini muntazam oshirishi va ularning ma'nosini bilishi shartdir.

Globalashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda turli xalqlar tili va madaniyatini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda madaniyatlarni va xalqlarni bo'g'lovchi ko'priklar bo'lgan badiiy tarjimaning o'zni beqiyosdir. Badiiy asar bu xalqning madaniyatini aks ettiruvchi vosita bo'lsa, badiiy tarjima esa uning ikkinchi bir tilda aksidir. Badiiy asar tarjimasini bilan shug'ullanayotgan tarjimon har tomonlama yetuk, intellektual salohiyati yuqori, yuksak ma'naviyatli, ona tili, xorijiy tillar va madaniyatlarni mukammal egallagan va undan tilshunoslik sohasida samarali foydalana oladigan malakali mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Asliyat tilida qo'llanilgan leksik birlik tarjima qilinayotgan madaniyatga umuman noma'lum bo'lgan tushunchani ifodalashi mumkin. Bunday birlik diniy e'tiqodga, ijtimoiy hayotga yoki ovqat

nomlariga tegishli aniq tushuncha bo'lishi mumkin. Shu kabi leksik birliklar - madaniy o'ziga xoslikni aks ettiradi. Nemis tilidagi milliy xos birliklarni boshqa tilga tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi [1]. Tarjima jarayonida til va madaniyatning o'zaro aloqasiga alohida e'tibor qaratiladi. Til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi fan bu lingvomadaniyatshunoslikdir. Bugungi kunda lingvomadaniyatni muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin [2]. Demak, lingvomadaniyat madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoiniy birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır. Lingvomadaniy bilim badiiy asarlar tarjimasida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima san'ati butun dunyo madaniyati rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi va bir tilning bor jozibasiy madaniyatini boshqa tilga ko'chiradi [2]. Agar u badiiy tarjima bo'lsa, mutarjimdan yanada ko'proq ilhom, mashaqqat va kuch talab qiladi. Lingvomadaniyat badiiy tarjimaning asosini tashkil etadi. Tarjima va ayni badiiy tarjima haqida gapirilganda, avvalo, uning kelib chiqishi va bu so'zga berilgan ta'riflarni keltirib o'tishni zarur deb bildik. Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadimgi Rimda yuzaga kelgan edi [3]. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so'z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma'no ifodalarni avval tarozida o'lchab, keyin tarjima qilish ma'qul, degan fikrni bildirganlar.

Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o'z nazariy tushunchalarini bildirib o'tganlar. To XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar tarjimasiga nisbatan qo'llanib kelingan, og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamalarini ishlatilgan. Tarjima tarjimon so'zidan hosil bo'lgan, tarjimon esa forscha tarzabon so'zidan kelib chiqqan [4].

Badiiy tarjima — bu tilni tarjima qilishga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, tarixiy tajribalarni, o'ziga xos dunyoqarashlarni va madaniyatlarni boshqa tilga o'g'irishni o'z ichiga oladi. Lingvomadaniyatshunoslikda ruhiy madaniyat prizmasi orqali tarixiy va zamonaviy lisoniy faktlar tahlil qilinadi. V.A.Maslovaning kontsepsiyasida bu borada V.N.Teleyaning ilmiy izlanishlaridan farqli natijalarni ko'rish mumkin. Xususan, lingvomadaniy tadqiqotlarda sinxroniya va diaxroniya masalalari ham tadqiq qilinadi [7]. Bundan tashqari, yana badiiy tarjima bu she'r, dramatik va nasriy asarni boshqa xorijiy tillarga o'g'irish jarayonidir. Bu o'quvchining dunyo va uning tarixi, falsafasi, siyosati to'g'risidagi tushunchasini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy tarjima nima ekanligi to'g'risida to'xtalar ekanmiz, bu tarjimondan, birinchi navbatda, ijodiy yondashuvni va tarjima mahoratini talab qiladigan tarjimaning bir turi ekanligini ta'kidlashimiz zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvomadaniyat har bir xalqning faqat bugungi kundagi turmush tarzini emas, balki ularning asrlar davomida saqlanib kelayotgan milliy an'analari, badiiy, ilmiy madaniyati, musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabilarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Har bir aloqa yoki asl xabarning amaliy qiymati mavjud. Tarjimon xabarning dalillar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanini bilishi lozim.

Tarjimon — ikki milliy adabiyot o'rtasidagi aloqachi. Voqealar oqimini original asar muallifi qanday tasavvur qilsa, u ham shu oqim ichiga muallif kabi singib borishi lozim. Jukovskiydek buyuk tarjimon ham shunday qilgan. U ingliz shoiri Tomes Greyning (1716-1771) Qishloq qabristonida yozilgan marsiyasini tarjima qilgan ekan, o'z ishidan ko'ngli to'lmaydi, 1839 yilda may oyida Angliyaning Vindzor qishlog'iga, Tomes Greyga ilhom baxsh etgan o'sha qishloqqa boradi. U yerda bu ajoyib poemani qaytadan o'qib chiqadi. Shundan so'ng asliga yaqin bo'lgan boshqa variantini yozishni boshlaydi. Faustning birinchi fransuzcha tarjimasini qilgan Jan Batist Lemarkan asarning qorong'i joylarini yoritib berishni Gyotening o'zidan so'ragan ekan. Jukovskiy Odisseyani nemis tilidan tarjima qilgan ekan, grek tili va adabiyoti bo'yicha mutaxassis, professor Grasgof maslahatiga amal qiladi. O'zbek tarjimonlari Yo'lbars terisini yopingan paxlavonni rus tilidan, gruzin rustavelishunosi K Chiginadzedan, Al'fred Kurilla Navoiy asarlarini nemis tiliga o'g'irgan ekan akademik shoir G'afur G'ulom yordamiga tayanganlar. Adabiyotshunos olimlar, Navoiyshunos professorlar A Qayumov, A Hayitmetovlar rus tarjimoni V Derjavinga Saddi Iskandariy va Hayrat-ul abror dostonini rus tiliga o'g'irishda ilmiy maslahatlar bilan ko'maklashdilar. Doktor Yan Kamorovskiy Alpomishni slovyan tiliga tarjima qilishda professor V M Jirmunskiyning ko'magi bilan ish tutdi. Bunday badiiy aloqa asl nusxa tilini mukammal bilmaydigan tarjimon uchun qariyb ikkinchi til vazifasini o'taydi. Ukrain yozuvchisi va tarjima nazariyachisi O Kundzich so'zlarida chuqur ma'no bor: "Tarjimon o'zga milliy olam ichiga kirishib ketishi, uni o'ziga singdirib olishi, unga chin dildan berilgan bo'lishi, o'z qalbidan joy olgan san'at asarini yaratgan yurtning muxlisiga aylanishi kerak". Asliga monand, hamohang nafis tarjima yaratish uchun bu ijodiy hamkorlikka to'g'ridan to'g'ri tarjima qilganda ham, taglama orqali tarjima qilganda ham katta ahamiyatga ega. Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjimaning ko'lam va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va o'z navbatida u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilm-fan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi. Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyorida tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqe'likning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqalar ijodida tarjima katta o'rin egallaydi.

Tarjimon o'g'irayotgan asarning faqatgina asosiy g'oyasini, muallif uslubinigina emas, balki personajlar tilining milliy xususiyatlarini ham to'la-to'kis ochib berishlari kerak. Obrazlar nazqidagi milliy ruhni saqlab qolish tarjimonning eng muhim vazifalaridan biridir. Agar asl nusxadagi barcha milliy belgilar o'chirib yuborilsa, tarjima qilinayotgan asar o'z qiyofasini yo'qotadi, uning obrazlari asar ruhini belgilamaydi. Bunday tarjimondan kitobxon asarning muallifi va voqealari haqida personajlar va voqea sodir bo'layotgan joy haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydi.

Har qanday asarning o'ziga xosligi, dastavval, uning mazmunida va asarning tilida ko'rinadi. Asarning haqiqiy mazmunida ifodalangan milliy o'ziga xoslikni berish tarjimonga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Asarning tilida ifodalangan milliy ruhni berish esa haqiqatdan ham qiyin ish. Chunki asar qaysi xalqning tilida yaratilgan bo'lsa, shu xalqning hayoti bilan chambarchas bog'liq, shu xalqning fikr tarzini aks ettiruvchi ideomatik iboralarga, frazeologik birliklarga boy bo'lib, ular o'z navbatida yozuvchi uchun asarda xalq tilini ifodalovchi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir xalq madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular madaniyatlararo tafovutlarni, ya'ni farqli jihatlarni namoyon etadi hamda tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchiliklar tug'diradi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi haqida so'z ochar ekanmiz, avvalo, qissa oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turishini ta'kidlash joiz. Shu bois xorijiy tillarga, jumladan, nemis tiliga ham o'g'irilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asarini erkin tarjimon, Oybek Ostonov nemis tiliga mahorat bilan o'g'irishga erishdi. Ushbu asarda milliylik aloqatlarini ifodalashga xizmat qiladigan juda ham ko'p frazeologik birliklar qo'llangan bo'lib, tarjimon ularni o'zbek tilidan nemis tiliga o'g'irishga, mazmunini qayta tiklashga erishgan.

„Dunyoning ishlari“ qissasi xalq turmushi va hayotining shu davrdagi o'ziga xos yilnomasi o'laroq o'zbek madaniyatini, urf-odatlarini, hayot tarzini, milliylikni aks ettiradi. O'zbek milliy madaniyatiga xos leksik birliklarining tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va bu muamolarni hal etishda tarjimonlar tomonidan qo'llanilgan usullarni qissaning nemis tiliga tarjimasini tahlil qilish jarayonida o'rganib chiqamiz.

1. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarimdan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... [5] Tarjimasini: Vielleicht geht es Ihnen bisweilen ähnlich wie mir, dass Sie mitten in der Nacht plötzlich aufwachen, den Blick auf die Zimmerdecke richten und einfach nur liegen und liegen... [6] Bu yerda asl nusxadagi „tun yarimdan oqqanda“ iborasiga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent „mitten in der Nacht“ keltirilgan.

Bunga yana bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan:

2. Avvaliga chiqqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo'ladi. [5]. Tarjimasini: Die eintönig tickende Uhr scheint allmählich zu verstummen [6]. Tarjimon „bora-bora“ iborasini aynan tarjima tilidagi „allmählich – sekin-asta, bora-bora“ so'zi bilan mohirona ochib bergan. Bu yerda tarjimonning so'z tanlash mahorati tahsinga sazovor.

3. Shu qadar og'ir sukunat cho'kdiki, quloqlaringiz shang'illab ketadi. [5] Tarjimasini: Es tritt eine so tiefe Stille ein,

dass Ihnen die Ohren zu sausen beginnen. [6] Tarjimon „og'ir sukunat cho'kmoq" iborasini tarjima tilidagi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanib „eine so tiefe Stille eintreten" (juda chuqur sukunat kirmoq; juda og'ir sukunat ro'y bermoq) birikmasi orqali tarjimon iboraning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanihga majbur bo'ladi. Eng ahamiyatli jihati shundaki, ushbu tarjima til imkoniyatlaridan yaratilgan birikma „eine so tiefe Stille eintreten" asl nusxadagi „og'ir sukunat cho'kmoq" iborasi bilan bir xil ma'no ifodalaydi.

4. O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman[5]. Tarjimasi: Tränen, die ich kaum beherrschen kann, drängen sich in meine Augen. [6] Tarjimon „O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman" iboralarning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanihga majbur bo'ladi.: „Quyilib kelayotgan ko'z yoshlarimni bazo'r to'xtatolaman (tiyib turolaman)" Bizning na'zdimizda, „Tränen, die ich kaum beherrschen kann (ko'z yoshlarimni bazo'r to'xtatolaman (tiyib turolaman)) " gapini „Tränen, die die ich nicht beherrschen kann (ko'z yoshlarimni to'xtatolmayman (tiyib turolmayman)) " jumlasini bilan almashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki asl nusxada „O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman" – deb yozilgan.

5. Bo'ldi endi, bolam! Bunaqada o'zingizni oldirib qo'yasiz. [5] Tarjimasi: „Nun reicht es, mein Kind! Wenn Sie weiter so trauern, werden Sie krank. [6] Tarjimon „o'zini oldirib qo'ymoq" iborasini „krank werden (kasal bo'lmoq)" iborasi orqali ifodalagan. Asl nusxadagi „Bunaqada o'zingizni oldirib qo'yasiz" gapini tarjimada „Agar shunday qayg'uraversangiz, kasal bo'lib qolasiz" - deya o'girigan. Tarjimon iboraning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalangan.

6. Bunaqa ruhi pok odamlar kam bo'ladi, bolam, men bilaman-ku [5]. Tarjimasi: Leute, mit solch einer reinen Seele gibt es selten auf der Erde, mein Sohn. Ich weiss, wovon ich rede [6]. Tarjimon asl nusxadagi „ruhi pok" iborasini uning sinonimi "reine Seele sof ko'ngil" iborasi orqali ifodalagan.

7. „Ko'zinga qara, bolam, chuqur bor" [5]. Tarjimasi: „Sei vorsichtig mein Sohn! Da gibt es eine Grube" [6]. Tarjimon asl nusxadagi „ko'zga qaramoq" iborasini tarjima tilidagi „vorsichtig sein – ehtiyot bo'lmoq" birikmasi orqali ifodalagan va umumiy ma'noni aks ettirish bilan kifoyalangan. Tarjimon bu yerda kontextga mos so'z birikma topa olgan, chunki „ko'zga qaramoq" iborasi „ehtiyot bo'lmoq", „diqqatli bo'lmoq" kabilar bilan sinonimlik hosil qila oladi.

8. Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'пти [5]. Tarjimasi Aus Gram, die Söhne weder zur Versöhnung noch zum Frieden bewegen zu können, wurde die Mutter krank und starb schliesslich vor Kummer [6]. Tarjimon „adoyi tamom bo'lmoq" iborasini tarjima tilidagi „krank werden-kasal bo'lmoq", „schliesslich vor Kummer sterben – va nihoyat qayg'udan o'lmoq" iboralari orqali ifodalagan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, tarjimon yozuvchi ko'zda tutgan mazmuni kitobxonga yetkazib bera olgan.

Xulosa va takliflar. Til madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashini ham aks etadi. Tarjima jarayonida ushbu jihatlarni barchasi ikkinchi bir tilda qayta yaratiladigan murakkab jarayon. Tarjimon oldida ikki xil yondashuv turadi: tarjimaning transliteratsiya, transkripsiya va tasviriy tarjima usullaridan foydalanib aslyat matnining milliy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolish yoki yaqin ma'noli leksik birliklardan foydalangan holda tarjima tili madaniyatiga xos matn yaratish. Tarjimon aslyat matnining xususiyatlarini saqlab qolgan holda ikkinchi bir tilda ekvivalent matn yaratishni maqsad qilishi kerak. Badiiy tarjimada lingvomadaniy yondashuv to'g'risida so'z borganda, birinchi o'rinda asl matni tarjima matniga imkon qadar to'liq va to'kis holatda tarjima qilishni aytamiz. Ammo har qanday matnning lingvistik o'ziga xosligi bo'ladi. Agar tarjimon bu uslub va yo'nalishlarni tarjimada qo'llay olmasa, tarjimada muqobillik saqlanmaydi va bu tarjimonning o'z ijodiy ishiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham tarjimonlar matnlarni to'liq tarjima metodlari va uslublaridan foydalangan holda tarjima qilishlari kerak. Chunki lingvomadaniyatning o'rni badiiy tarjimada nihoyatda beqiyosdir. Umuman, lingvomadaniyatga xos ko'nikma va bilimlarsiz tarjimon kutgan natijaga erisha olmaydi. Bu tabiiy. Lekin badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini hisobga olish tarjimadagi muvaffaqiyat uchun zarurdir. Tarjimonlar madaniyatlararo ko'prik yaratishda asosiy rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat so'zlarni, balki madaniy tushunchalarni ham o'tkazadi. Tarjimadagi muvaffaqiyat, leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini to'g'ri tushinish va ularni moslashtirishga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 121 b
2. G'. Salomov Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir, Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent- 1961.
3. A'zamov Q. Milliy o'ziga xoslik va badiiy tarjima // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1987. -№4 –B. 62-67
4. Мусаев К. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода. Ташкент: Ўқитувчи, 1980-192 с
5. O'tkir Hoshimov „Dunyoning ishlari" Qissa. Toshkent: Sharq, 2005
6. Kein Himmel auf Erden. Utkir Hoshimov; Übersetzer Oybek Ostanov. Taschkent: Akademnashr. Verlag. 2014. 304 S.
7. Salomov G'. T. Tarjima nazariyasi asoslari. T.:O'qituvchi. 1983, - 120-121 b